

G‘afforova Dilnura

Bux.DU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası “Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) mutaxassisligi,
1-bosqich magistri

Ilmiy rahbar: B.I. Mustafayev, professor

Annotatsiya: maqolada ovoz diapozoni, xonanda ovozi, uning asosiy sifatlari, xonandalik ovozi turlari, xonandalik ovozlari rivojlantirish usullari, shuningdek mutaxassislarning ovoz diapozoni, uning o‘ziga xos jihatlari xususida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xonandalik ovozi, diapozon, vokal san’ati, musiqa pedagogikasi, intonatsiya, diksiya, ovoz tembri, nafas, rezonans, artikulatsiya, xonandalik an’analari, nutq, musiqiy ifoda, vokal mashqlari, xonanda mahorati.

Vokal san’atida ovoz diapazonining ahamiyati katta. Zero, ovoz diapazoni xonandaning ijrochilik imkoniyatini belgilaydi. Uning vokal texnikasi, sahnadagi ifoda vositalari va ijro diapazoni aynan ovoz chegarasiga bog‘liq bo‘ladi.

“Ovoz” — tabiiy fiziologik hodisa bo‘lsa, “Xonanda ovozi” — badiiylashgan, musiqa ifodasiga xizmat qiluvchi ijrochilik vositasidir. “Ovoz” va “xonanda ovozi” tushunchalariga musiqashunoslik va vokal pedagogikasi nuqtayi - nazaridan ilmiy ta’riflar beriladi. Ovoz — bu insonning tovush chiqarish apparati orqali havo tebranishidan hosil bo‘ladigan akustik hodisa bo‘lib, u nutq va musiqiy ifoda vositasi hisoblanadi. Zero, musiqa nazariyasida: Ovoz — bu muayyan balandlik (chastota), kuch (dinamika), davomiylik va tembrga ega bo‘lgan tovushdir[1].

Fiziologiya nuqtayi nazaridan ovoz insonning havo nayi, tovush bog‘lamalari va rezonator tizimi faoliyati natijasida hosil bo‘ladi [2].

“Xonanda ovozi” tushunchasi — bu inson ovozining musiqiylashgan, boshqarilgan va badiiylashgan shakli, ya’ni ijrochilik maqsadlariga yo‘naltirilgan ovoz turidir.

Xonanda ovozining go‘zalligi va kuchliligi uning diapazoni emas, ovozni boshqarish madaniyati va hissiyotni yetkazish qobiliyati bilan belgilanadi

Musiqa pedagogikasida xonanda ovozi — inson ovoz apparatining tabiiy xususiyatlariga asoslangan, ammo vokal mashqlari orqali balandlik, tembr, dinamika va diapazon jihatidan rivojlantirilgan ovozdır[3].

Xonandalik ovozi o'zining asosiy sifatlariga ega. Diapazon - xonandaning eng past va eng yuqori tovush oraliq'i sanalsa, tembr - ovozning individual rang-barangligi, ya'ni "ovoz bo'yog'i" kuch (dinamika) esa - ovoz chiqarishdagi havo bosimi va rezonans ta'sirini belgilaydi. Soflik (intonatsiya) - ovoz balandligining aniqligi va musiqa lad tizimiga mosligi. Diksiya - so'zlarni ravshan va aniq talaffuz qilish qobiliyati. Rezonans - ovozning tana bo'shliqlarida (ko'krak, bosh, burin) yangrash darajasi.

Ovoz diapazoni — bu inson ovozining past nota (eng quyi) dan tortib to yuqori nota (eng baland) gacha bo'lgan cholinadigan tovushlar orasidagi kenglikdir. YA'ni, har bir xonandaning ovozi ma'lum chegarada erkin cholinadigan tovushlarni qamrab oladi. Bu chegara ovoz diapazoni deb ataladi. Masalan: Ayollar ovozida — soprano, metsso-soprano, alt, Erkaklar ovozida — tenor, bariton, bas kabi turlar shunga asoslanadi.

Xonanda ovoz diapozonini ahamiyatli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- xonanda ovoz diapazonini bilishi orqali o'ziga mos repertuar tanlaydi.
- maqom, opera, estrada yoki xalq qo'shiqlarini ijro etishda ovoz diapazoni qo'shiqning ruhiy ta'sirini oshiradi.
- vokal mashqlari orqali diapazonni kengaytirish mumkin, lekin tabiiy ovoz chegarasidan chiqish mumkin emas.
- ovoz diapazoni bilan birga tembr (ovoz rangi) va dinamika (kuch va balandlik) ham muhim rol o'ynaydi.

Xonanda ovozi xususida mutaxassislar turlicha fikr-mulohazalar bildirishadi. N. Qurbonaliyev [4]: "Xonanda ovozi nafaqat tabiiy ne'mat, balki uning madaniy va ruhiy tajribasini ifoda etuvchi musiqiy vositadir", -deb ta'riflansa, YE. Mirzayev [5] "Xonanda ovozi nafas, rezonans va artikulatsiya tizimlarining uyg'un faoliyati orqali shakllanadi; ovozni kuch bilan emas, idrok va hissiyot bilan boshqarish kerak", - degan fikrni ilgari suradi.

Ovoz diapazoni — bu inson ovozining eng past notadan to eng yuqori notagacha bo'lgan tovushlar oraliq miqyosi hisoblanadi. YA'ni, har bir xonanda yoki ovoz sohibi qay darajada past va qay darajada baland tovushni aniq va tabiiy chiqara olishi ovoz diapazoni bilan belgilanadi.

Vokal san'atida inson ovozi asosan quyidagi turlarga bo'linadi: Erkak ovozlari: "Bas" - eng past tovushli erkak ovozi, kuchli va chuqur tembrli. "Bariton" - bas va tenor orasidagi mo'tadil ovoz turi. "Tenor" - yuqori va jarangdor erkak ovozi.

Ayol ovozlari: "Alt" - past, barqaror va jumboqli ayol ovozi. "Metsso-soprano" - o'rtacha balandlikda, yumshoq va iliq tembrli ovoz. "Soprano" - eng baland, nurli va yengil ayol ovozi.

Odatda diapazon oktavalar bilan o'lchanadi (masalan, 1 oktava, 2 oktava va h.k.). Bir oktavada 8 nota bo'ladi, demak, ovoz diapazoni qanchalik keng bo'lsa, ijrochining texnik imkoniyatlari shunchalik katta bo'ladi.

Xonanda ovozi haqida musiqashunos olimlar va vokal sohasi mutaxassisleri turli ilmiy ta'riflar berishgan. Jumladan, N. Zokirov [6] "Xonanda ovozi — bu inson nafas apparati, tovush bog'lamalari va rezonatorlar faoliyati orqali hosil bo'ladigan individual tembrga ega tabiiy cholg'udir."- deya e'tirof etadi. B. Rajabov[7] esa shunday yozadi: "Ovoz insonning ichki ruhiyati, hissiyoti va jismoniy imkoniyatini namoyon etuvchi musiqiy ifoda vositasi bo'lib, har bir xonandada u o'ziga xos tembr va diapazon bilan farqlanadi". YE. V. Kolesnikova[8] izlanishlarida: "Xonanda ovozi — bu nafas, tovush va nutq apparatining muvozanatli ishlash natijasida vujudga keladigan, dinamik va emotsional imkoniyatlarga ega jonli instrument"ligini bayon etadi. O.Yunusov[9] xonandalik ovozining milliy musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini izohlab: "Xonanda ovozi — xalq musiqa madaniyatida insoniy hissiyotni, milliy ruhni ifoda etuvchi eng ta'sirchan vosita ekanligini uqtiradi."

Ovoz diapazoni keng bo'lgan o'zbek xonandalari nafaqat vokal texnikasi, balki musiqiy hissiyot, nafas nazorati va tembr imkoniyatlari bilan ham ajralib turadi. Tarixiy ovoz diapazoni kengligi bilan tanilgan o'zbek vokalchi xonandalardan Mumtoz va an'anaviy vokal yo'nalishda Munavvar Qori Yorqulov (1909–1973) ovoz diapazoni: taxminan 2,5–3 oktava, Mavludaxon Abdullayeva (1918–2003) Ovoz diapazoni keng soprano (fa–sol³ chamasi). Farog'at Madaliyeva - Ovoz diapazoni: metsso-sopranodan yuqori sopranogacha (taxm. 3 oktava) darajasida bo'lgan.

O'zbek vokal maktabida ovoz diapazoni keng xonandalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular nafaqat ovoz kengligi, balki nafas texnikasi, tembr, diksiya va milliy uslubni saqlab qolish qobiliyati bilan ham ajralib turadilar.

Zamonaviy ovoz diapazoni kengligi bilan mashhur o'zbek vokalchi-xonandalardan Yulduz Usmonova (ovoz diapazoni - 3 oktavaga yaqin). Sevara Nazarxon – (ovoz diapazoni: metsso-soprano, ammo texnik jihatdan 2,5 oktavadan ortiq qamrovga ega. Nasiba Abdullayeva - diapazon: do¹–do⁴, (ya'ni to'liq 3 oktava). Erkak xonandalar

orasidan Rashid Bekqulov (1925–1989) diapazon: si–sol² oralig‘ida (2,5 oktava). SHerali Jo‘rayev bariton ovoz sohibi, 2,5 oktava atrofida diapazon bilan mashhur bo‘lgan. Botir Zokirov (1936–1985) Diapazon: baritondan tenorgacha, taxminan 3 oktavani tashkil etgan.

Ovoz diapazonini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. U quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi.

1. To‘g‘ri nafas olish (diafragmal nafas) — ovozni barqaror chiqarishga yordam beradi.

2. Vokal mashqlari — pastdan balandga yoki aksincha harakatlanish orqali ovoz ligamentlarini mashq qilish.

3. Diksiya va artikulyatsiyani rivojlantirish— tovush aniqligini oshiradi.

4. To‘g‘ri ovoz qo‘yish — har bir ovoz turi uchun maxsus mashqlar bilan to‘g‘ri diapazonni saqlab qolish.

Xullas, ovoz diapazoni — vokal san‘atining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, u xonandalik mahoratining texnik va estetik imkoniyatlarini belgilaydi. Har bir xonanda o‘z ovoz diapazonini bilishi, unga mos repertuar tanlashi va uni doimiy ravishda rivojlantirib borishi zarur. Keng diapazon, to‘g‘ri nafas va tembr uyg‘unligi— san‘atkorning ijrochilik salohiyatini belgilaydigan muhim omillardandir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эдельман Ю.Э. Музыкальная акустика. — Москва: Музыка, 1979. — стр.12–14.
2. Емельянов В.В. Физиология певческого голоса. Ленинград, 1985. — стр. 25–28.
3. Стулова Г.П. Основы вокальной методики. — Санкт-Петербург, “Планета музыки”, 2015. — стр.33–36.
4. Курбоналиев Н. Ўзбек анъанавий хонандалик мактаби асослари, Тошкент, 2012. —Б. 45–47.
5. Мирзаев Е. Вокал санъати назарияси ва амалиёти, Тошкент, 2017. —Б. 39–42.
6. Зокиров Н. Вокал санъати асослари” – Тошкент: Санъат, 2005. –Б. 27.
7. Ражабов Б. Ўзбек вокал маданиятининг ривожланиш йўллари” – Т.: Фан, 2011. – Б.45..
8. Колесникова Е.В. “Основы вокальной педагогики”. – Москва: Музыка, 2009. – стр.33.

9. Юнусов О. “Ўзбек халқ вокал анъаналари”. – Тошкент: Санъат, 2017. – Б. 62.

10. Mustafayev B.I. Maktabda musiqiy ta'lim faoliyatlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. ISSN 2992-9024 (online) 2025, vol.3. - B.175-184.

11. Mustafoyev B. Methods Of Using Innovative Technologies in Developing Acmeology Of School Music Teachers. INTELEKTUALITAS: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan: Volume 2, Number 1, 2025, Page: 1-6.